



**CHE TILI DARSALARIDA TALABALARNING TINGLAB  
TUSHUNISH SOHASIDAGI QIYINCHILIKLAR**

**Bozorova Viloyat Muzaffarovna**, Fakultetlararo chet tillar kafedrasi katta o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston.  
**Isroilov Shaxzod**, 13-1QXMS guruh talabasi, Buxoro davlat universiteti.

**Abstract**

Ushbu maqolada chet tili darslarida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, talabalarning til o'rganish sohasidagi muammolari yuzasidan fikr yuritilgan. Chet tili darslarida asosiy vazifani bajaruvchi tinglab tushunish masalasiga e'tiborni jaib qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, tushunish muomalaga kirishish uchun poydevor bo'lib hisoblanadi.

**Keywords:** nutq faoliyati, shakli qiyinchiliklar, nutqiy idrok, lisoniy – leksik qiyinchilik, Grammatik qiyinchilik, fonetik qiyinchilik, audiomatrni.

---

Pedagogik ijod jarayonida ta'lrim-tarbiyaga butunlay yangicha yondashish ishlab chiqilishi, yangicha shakl, usul, vositalarni yangicha sharoitda qo'llanilishini asoslanishi yoki ularni yangicha vazifalar talabi asosida takomillashtirish nazariy va uslubiy xulosalarni pedagogik jarayonga qo'llash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Amaliy faoliyat bilan shug'ullanayotgan pedagoglar uchun pedagogik ijodning eng oliy bosqichi ta'lrim-tarbiyani mutlaqo yangi, yuqori natija beruvchi shakllarini yaratishdir.

Chet tili darslarini o'tishda nutq faoliyati turlarini o'rgatishda har biriga xos qiyinchiliklar mavjud. Tinglab tushunishda sodir bo'ladigan qiyinchiliklar bir talay. Ularni bilish chet tili o'rgatishda hal qiluvchi shartlardandir. Idrok etish, jumladan nutqni idrok etib tushunish muammolari jahon ruhshunosligida ancha mufassal ishlab chiqilgan. Talabalarning tinglab tushunish sohasidagi qiyinchiliklar quyidagilardan iborat:

1. Tilga oid shakli qiyinchiliklar. Ma'nosi har xil, tovush shakli esa o'xshash so'zlarni (omofonlarni) yoki chet tili fe'lining majhul darajasini tinglash va tushunish murakkablik kasb etadi. Omofon va majhul fe'l bir qarashda tanishga o'xshaydi, biroq audiomatnning mazmunini payqashda hiyla qiyinchilik tug'diradi.

2. Mazmunga doir qiyinchiliklar. Olinayotgan axborot qamrovidagi nima, qaerda, kim bilan, qachon bo'lishi kabi dalillarni idrok etish bobida yoki ular orasidagi bog'lanishni ilg'ab olish, shuningdek, umumiyl g'oyaga taaluqli qiyinchiliklar mavjuddir.

3. Nutqiy idrok qilishning shart – sharoitidagi qiyinchiliklar. Bularidan nutq tezligi, ohangi va mexanik yozilgan audio matnning murakabligini eslatish kifoya. Shu bilan birga audiodomatnni bir marta idrok qilish, notanish odamni tinglash, ovozdagi o'ziga xoslik kabilalar ham tushunishda g'ov bo'lishi tabiiy.

4. Nutq shakliga oid qiyinchiliklar. Dialog nutqda javob qaytarish, monologni tinglashda esa jumlalarni eshitishi xotirasida saqlash talaba uchun muayyan qiyinchilik keltirib chiqaradi.

5. Tilshunoslik nuqtai nazaridan sodir bo'ladigan qiyinchiliklar. Ularni lisoniy – leksik, grammatic va fonetik qiyinchiliklar deb ataladi. Leksikada juft tushunchalar (masalan, dunyo tomonlarini ifodalovchi so'zlar, ko'p ma'nolilik (polisemiya) turg'un birikmalardagi so'z ma'nosi, yordamchi so'zlar, grammatic jihatdan ona tilida yo'q xodisalar yoki fonetik tarafdan so'zning yozuvda va talaffuzda keskin tavafuti, urg'u va ohangning o'xshamasligi tegishli qiyinchiliklarga sabab bo'ldi.

6. Audiomatrni tuzilishiga oid qiyinchiliklar. Audiomatnning tuzilishi (kompozision – mazmuniy tuzilishi) ham qiyinchiliklarga olib kelishi aniqlangan. Chunki bayon etilayotgan axborotni ilg'ab olishga uning bevosita daxli bor. Gapning yoki satr boshining bir – biriga mantiqan yopishishi, matnning yuzaki yoki chuqurligi, notanish leksik birliklar ishtiroti va qator o'xshash kompozitsion – mazmuniy holatlar audiomatnning tushunilishi darajasini belgilovchi omillardir. Talaba tinglab tushunishda duch keladigan qiyinchiliklarni e'tirof etishdan maqsad ularning oldini olish choralarini ko'rishdir. Qiyinchiliklar mehnat va vaqt talab qiladi, maxsus mashqlarni bajarish zaruriyatini tug'diradi. Qiyinchiliklarni o'z vaqtida bartaraf qilish yo'li bilan ta'lim jarayonini Jadallashtirish va o'qitishning eng moqbul metodikasini ishlab chiqarishga muvaffaq bo'linadi.

Til o'rganishda yoki umuman hayotda voqeal bo'ladigan qiyinchiliklar sabab va oqibatning bir – biri bilan bog'liq ravishda aniqlanadi. Qiyinchiliklarni oldindan aniqlash, uning sabablarini bilish mumkin. Qiyinchilikning yuzaga chiqishi turli xatolar va ko'zlangan natijaga erishish darajasi bilan belgilanadi. Talabalarning o'zgalar nutqini idrok etib, uning mazmunini fahmlay olishlaridan qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'lida tinglab tushunishning psixofiziologik mexanizmlarini to'g'ri shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Tinglab tushunish ham nutq faoliyatining turi bo'lib, retseptiv nutq faoliyatiga kiradi. Tinglab tushunishni so'zlovchining nutqini radiordan, televideniyedan, Internetdan va muloqot paytida tinglab – tushunib, ma'lumot olishdir. Bu murakkab nutq faoliyati bo'lib hisoblanadi, chunki tinglovchi tezda shaklni qabul qila olishi, tezda mazmunni tushuna olishi,

**International Scientific Forum "MALAYSIA":  
Innovations in Economics, Social Sciences, Environment and Natural Science  
December 10, 2024. Kuala Lumpur, Malaysia  
ISBN 979-8-9876322-1-5**

xotirada saqlab qolishi zarur, aks holda uni qaytadan ko'rib, o'qib tushuna olishi uchun manba, sharoit vosita yo'q. Talaba o'qiganda, ko'rganda tinglab tushunishga qaraganda olti marta ko'p ma'lumot olarkan, sababi uni ustida kam ishlaganidadir, murakkabligidir. Tinglab tushunish boshqa nutq faoliyatlariga ham yordam beradi. U gapirishni ajralmas qismidir. Tinglab tushunish bilan gapirish ikkalasi og'zaki nutqni tashkil qiladi va gapirishni bir qismi sifatida ta'riflanadi. Tajribalar ko'rsatadiki, tinglab tushunishni rivojlanganiga qarab, gapirish ham rivojlanadi, talaba ayniqsa, dialogda yaxshi qatnasha oladi. Masalan: ingiliz tilidagi unli tovushning qisqa cho'ziqligi, so'z oxiridagi undosh tovushning jarangli-jarangsizlashuvida yuksak takribiylikka intilish zarurdir, aks holda mazmunga putur etadi.

Tinglab tushunish orqali ham, o'qish orqali ham ma'lumot qabul qilinadi, shu sababdan ikkalasi ham retseptiv nutqlardir. Talaba to'g'ri o'qigan, talaffuz qilgan so'zlarni tezda qabul qilib taniydi va tushuna oladi. U o'zi to'g'ri o'qiy olmasa, talaffuz qila olmasa, so'zlarni tinglaganda taniy olmaydi, mazmunni tushunmaydi. Talaba yozganda ham so'zlarni, gaplarni to'g'ri o'qiy olsa, talaffuz qila olsa, yoza oladi, bu ham tinglab tushunishga yordam beradi. Tinglab tushunishning eng asosiy maqsadi, vazifasi, tanish til materillari asosida tuzilgan notanish mazmunli matnni, nutqni tinglab tushunish bo'lib, tinglab tushunishni o'rgatish ham vositadan ham materialini og'zaki o'rgatish, tushunishda boshqa nutq faoliyatlarini o'rgatishda vositachilik qiladi, maqsad bo'lganda esa, nutqni tinglab ma'lumot olish ko'zda tutiladi.

*References:*

- 1.Махсума Нарзикулова Исмоилова, Нулуфар Бахтиёрова Мавлонова. Использование современных информационных технологий в освоении профессиональных навыков// Актуальные научные исследования в современном мире. 2016 - № 5-3. С. 143-145.
- 2.МН Исмоилова. The role of modern technology in teaching foreign languages// Ученый XXI века. № 11 (24), 2016 г. С 46.
- 3.MN Ismoilova, NM Karimova. Using advanced information technologies in the assimilation of consciousness of students of national ideas// Ученый XXI века. № 11 (24). 2016 г.С 42-43.
- 4.ДР Арашова, МН Исмоилова. Методика преподавания индивидуализация обучения в вузах// Теория и практика современной науки. №12(30). 2017. С. 39-42.
- 5.Ш Максудов, МН Исмоилова.. Роль телекоммуникационных технологий и спорта в развитии студентов// Теория и практика современной науки. №1(31). 2018. С 317-319.
- 6.МН Исмоилова, ЗШ Султонова. Требования к методике обучения// Ученый XXI века. № 3-2 (38). 2018 . С 84-88.
- 7.Исмоилова М.Н., Тураева Г.Х. Методы обучения на основе мобильных технологий для изложения новых учебных материалов // Вестник Науки и образования. 2021, №8(111), Стр. 65-67.